

O'ZBEK HUQUQSHUNOSLIK FANI TARAQQIYOTIDA G'AFUR

ABDUMAJIDOVNING O'RNI

Vapayev Karimboy Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakultetining 3-kurs talabasi

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com


ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi huquqshunoslik fanining yetuk vakili, yuridik fanlar doktori, professor G'afur Abdumajidovning hayoti va ilmiy merosiga bag'ishlangan. Unda olimning yoshlik yillari, ta'lif olgan davrlari, prokuratura va yuridik oliy ta'lif muassasalaridagi ko'p yillik faoliyati yoritiladi. G'afur Abdumajidovning ayniqsa jinoyat-protsessual huquq, kriminalistika va konstitutsiyaviy huquq sohalaridagi ilmiy ishlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif tomonidan yozilgan "Kriminalistika" darsligi va boshqa metodik qo'llanmalar O'zbekistonda yuridik ta'lif tizimining shakllanishida muhim ro'l o'yaganligi asoslab beriladi.

Shuningdek, maqolada Abdumajidovning ilmiy unvonlari, davlat mukofotlari, konstitutsiyaviy islohotlardagi ishtiroki va huquqiy davlat asoslarini shakllantirishdagi hissasi yoritilgan. Uning ilmiy maktabi va pedagogik faoliyati orqali yurtimizda huquqshunos kadrlar tayyorlashga qo'shgan ulkan hissasi ham alohida tahlil etiladi. Maqola huquqshunoslik tarixini o'rganayotgan tadqiqotchilar, talabalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Huquqshunos olim, huquqiy ta'lif, ilmiy meros, kriminalistika, tergov metodikasi, faxriy unvonlar, ilmiy sharh, yuridik ta'lif.

THE ROLE OF GAFUR ABDUMAJIDOV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK JURISPRUDENCE



Vapayev Karimboy Muzaffar ugli

3rd year student of the Faculty of Criminal Justice

of Tashkent State University of Law

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

ABSTRACT

This article is dedicated to the life and scientific heritage of the outstanding representative of the jurisprudence of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Laws, Professor Gafur Abdumajidov. It covers the years of the scientist's youth, his education, his many years of work in the prosecutor's office and higher legal educational institutions. Gafur Abdumajidov's scientific work, especially in the fields of criminal procedure law, criminology and constitutional law, is analyzed in depth. It is argued that the textbook "Criminology" written by the author and other methodological guides played an important role in the formation of the legal education system in Uzbekistan.

The article also covers Abdumajidov's academic titles, state awards, participation in constitutional reforms and his contribution to the formation of the foundations of a legal state. His great contribution to the training of legal personnel in our country through his scientific school and pedagogical activities is also analyzed separately. The article is of theoretical and practical importance for researchers studying the history of jurisprudence, students and employees of law enforcement agencies.

Keywords: Legal scholar, legal education, scientific heritage, criminalistics, investigative methodology, honorary titles, scientific review, legal education.

РОЛЬ ГАФУРА АБДУМАДЖИДОВА В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЙ ЮРИСПРУДЕНЦИИ

Вапаев Каримбой Музаффар угли

Студент 3 курса факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена жизни и научному наследию видного представителя юридической науки Республики Узбекистан, доктора юридических наук, профессора Гафура Абдумажидова. Охвачены молодость ученого, его образование, многолетняя работа в органах прокуратуры и высших юридических учебных заведениях. Будут глубоко проанализированы научные работы Гафура Абдумаджидова, особенно в области уголовно-процессуального права, криминологии и конституционного права. Утверждается, что учебник “Криминалистика” и другие методические пособия, написанные автором, сыграли важную роль в становлении системы юридического образования в Узбекистане.

В статье также освещаются учёные звания Абдумаджидова, государственные награды, участие в конституционных реформах, вклад в формирование основ правового государства. Отдельно будет проанализирован его значительный вклад в подготовку юридических кадров в нашей стране посредством его научной школы и педагогической деятельности. Статья представляет теоретическую и практическую значимость для научных работников, студентов и сотрудников правоохранительных органов, изучающих историю юриспруденции.

Ключевые слова: Ученый-юрист, юридическое образование, научное наследие, криминалистика, методика расследования, почетные звания, научный обзор, юридическое образование.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillarini qaror toptirish jarayonida milliy huquqshunoslik fanining rivoji alohida ahamiyat kasb etdi. Bu yo‘nalishda yetuk olimlar, yuridik fan arboblari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar va tajribalar huquqiy islohotlarning ilmiy asoslanishini ta’minladi.

Shunday salmoqli olimlardan biri - yuridik fanlar doktori, professor G‘afur Abdumajidov bo‘lib, u o‘zining ko‘p yillik ilmiy-amaliy faoliyati, darsliklari va ilmiy tadqiqotlari orqali O‘zbekistonda kriminalistika, jinoyat-protsessual huquqi va jinoyat huquqi yo‘nalishlarining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Abdumajidov G‘afur Abdumajidovich 1928-yil 28-iyunda Samarcandda tug‘ilgan. Bu shaxs buyuk o‘zbek huquqshunos olimi hisoblangan. 1945-yilda O‘zbekiston SSR Adliya Xalq Komissarligining Respublika yuridik bilim yurtini tamomlagan. O‘qish davrida tuman sudi kotibi va sud ijrochisi lavozimlarida ishlagan. 1948-yilda Toshkent yuridik institutini tamomlagan .1960-yilda Leningrad davlat universitetining yuridik fakultetining aspiranturasini tamomlagan.

1987-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo‘lgan. Yuridik fanlari doktori (1983), professor (1985) ilmiy darajalariga ega. 1948-yildan O‘zbekiston SSR prokuraturasida prokuror yordamchisi (1948-yildan), O‘zbekiston SSR prokurori huzuridagi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchi (1951-1957) lavozimlarida ishlagan. O‘zbekiston SSRda taniqli shaxslarga nisbatan 100 dan ortiq jinoiy ishlarni tergov qilgan. Shuningdek O‘zbekiston fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutida katta ilmiy xodim, sektor mudiri (1961-66) sifatida faoliyat olib brogan. 1974-1991-yillarda SSSR IIV Toshkent Oliy maktabining kriminalistika

kafedrasi mudiri, 1991-1995 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari, 1995-2000 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasi lavozimlarida ishlagan. So‘ngra – Toshkent davlat yuridik instituti yuridik fakulteti “Jinoyat-protsessual huquqi” kafedrasi professori sifatida o‘z faoliyatini olib borgan.

Abdumajidovning ilmiy faoliyati jinoyatlarni tekshirish nazariyasi va amaliyotining muammolariga bag‘ishlangan. 1961-yilda “Paxtachilik bilan bog‘liq jinoyatlar va ularni tekshirish” mavzusida yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1983-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Davlat va huquq institutida “Jinoyatlarni tergov qilishning qonunchilikni tartibga solish nazariyasi va amaliyoti muammolari (O‘zbekiston SSR materiallari asosida)” mavzusida yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy komissiyasi tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni) loyihasini ishlab chiqishda qatnashgan. „O‘zbekiston davlat va huquq tarixi“, „Jinoyat huquqi“ va boshqa darsliklar hammuallifi hisoblanadi.

G‘afur Abdumajidov o‘zbek huquqshunosligining yetuk namoyondalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy faoliyati jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquq va kriminalistika sohalarini qamrab olgan.

Asosiy ilmiy yo‘nalishlaridan biri Jinoyat-protsessual huquqi hisoblanib, Abdumajidov jinoyat-protsessual huquq sohasida chuqr tadqiqotlar olib borgan. U jinoyat ishlarini tergov qilish, sud jarayonlarining samaradorligini oshirish va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratgan. Shuningdek Kriminalistika sohasida ham tadqiqotlar olib borgan. U kriminalistika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shtigan. Kriminalistika darsligi asosan jinoyatlarni ochish, dalillarni to‘plash va tahlil qilish metodikalarini ishlab chiqqan.

Ushbu huquqshunos olib nafaqat jinoyat huquqi, jinoyat protsessi bilangina shug‘ullanibgina qolmasdan, konstitutsiyaviy huquq sohasida ham ilmiy izlanishlar olib borgan. G‘afur Abdumajidov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan.

G‘afur Abdumajidovning “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar” kitobi ham jinoyat protsessual huquqida muhim va ahamiyatli manba sanalgan. Ushbu ishda jinoyat-protsessual kodeksning moddalariga izohlar berilgan, ularning amaliy qo‘llanilishi yoritilgan.

G‘afur Abdumajidovning ilmiy ishlarining ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning kitoblari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Utomonidan yozilgan darsliklar va qo‘llanmalar O‘zbekistonning yuridik oliy o‘quv yurtlarida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, u ko‘plab yuridik kadrlarga ustozlik qilgan, ularning ilmiy yetuklashuviga hissa qo‘sghan.

Jumladan uning birgina kriminalistika kitobining ahamiyati uni o‘zbek huquqshunoslida o‘chmas iz qoldirganligidan darak beradi. Ushbu kitobning mazmuni va asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat. Bu darslik jinoyatlarni ochish va tergov qilish metodikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, kriminalistika fanining nazariy asoslari va amaliy qoidalarini yoritadi. Darslikda quyidagi muhim yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi:

Kriminalistikaning predmeti va vazifalari:

Muallif kriminalistikaning jinoyatlarni ochish, oldini olish, tergov qilishda qanday ilmiy asoslar va uslublarga tayanishini tushuntiradi. Uning fikricha, kriminalistika nafaqat jinoyatni fosh etish, balki tergov faoliyatining samaradorligini oshirish vositasidir.

Kriminalistik texnika:

Abdumajidov tergovda qo‘llaniladigan texnik vositalar va uslublarni, jumladan, izlarni aniqlash, rasmga olish, daktiloskopiya, ballistika, biologik dalillar bilan ishlash tartibini tahlil qiladi.

Kriminalistik taktika:

Bu bobda jinoyatchini so‘roq qilish, ko‘rsatmalarni tekshirish, tergov eksperimentlari o‘tkazish kabi harakatlarning psixologik va taktikasini yoritadi.

Metodika:

Muallif turli xil jinoyat turlarini (o‘g‘irlik, qotillik, firibgarlik va boshqalar) tergov qilish metodikasini batafsil tahlil qiladi. Har bir tur uchun o‘ziga xos tergov harakatlari va strategiyalarini bayon etadi.

Bu asar O‘zbekiston huquq tizimida tergov faoliyati uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Abdumajidovning yondashuvi shundan iboratki, u kriminalistikani faqat nazariy fan sifatida emas, balki huquqni muhofaza qilish amaliyotining ajralmas qismi sifatida ko‘radi. Bu darslik orqali minglab tergovchilar va yuridik talabalar jinoyatlarni ilmiy asosda tergov qilish ko‘nikmalarini shakllantirgan.

“Jinoyatlarni tergov qilish. Protsessual va huquqiy tadqiqotlar” ilmiy ishi (1986) ommaga taqdim qilingan. Shuningdek G‘afur Abdumajidov “O‘zbekiston SSR davlat tili to‘g‘risida”gi O‘zbekiston SSR Qonuniga sharh ishlab chiqqan.

G‘afur Abdumajidov o‘zbek huquqshunosligiga qo‘shgan hissasi uchun bir qator unvon va mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Jumladan, Yuridik fanlari doktori (1983-yil), Professor (1985-yil) darajalariga erishgan. Faxriy unvonlardan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1987-yil) unvoniga ega bo‘lgan. Bu unvon unga huquqshunoslik fanining rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun berilgan.

Shuningdek huquqshunos olim “Shuhrat” medali (1995-yil) sazovor bo‘lgan. Bu mukofot Abdumajidovga O‘zbekiston Respublikasining yuridik tizimini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va ko‘p yillik samarali mehnati uchun berilgan. G‘afur Abdumajidov o‘zbek huquqshunosligining peshqadamlaridan biri bo‘lib, uning ilmiy va amaliy faoliyati huquq tizimining bir necha asosiy yo‘nalishlariga chuqrta’sir ko‘rsatgan.

Abdumajidov G‘afur Abdumajidovichning o‘zbek huquqshunosligidagi o‘rni va huquqiy ta’lim va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi ham beqiyos sanaladi. Abdumajidov uzoq yillar davomida yuridik oliy o‘quv yurtlarida dars bergen,

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasida professor va rahbar lavozimlarida ishlagan ushbu faoliyati orqali ko‘plab yosh yurist va tergovchilarning ustoziga aylangan.

G‘afur Abdumajidov Kriminalistika va jinoyat protsessi sohalaridagi yetakchi olim hisoblanadi. Abdumajidov kriminalistika fanini O‘zbekistonda chuqurlashtirgan olimlardan biridir. U jinoyatlarni fosh etish, tergov qilish va dalillarni to‘plash sohasida ilmiy asoslangan metodlar ishlab chiqqan va Jinoyatlarni tergov qilishda qo‘llaniladigan texnik va taktik uslublarni tizimlashtirgan. “Kriminalistika”, “Jinoyat protsessi” kabi darsliklarni yaratgan.

G‘afur Abdumajidov Konstitutsiyaviy islohotlardagi faolligi bilan ham davlat va jamiyat hayotida o‘zining faolligi bilan ajralib turgan. 1990-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda ishtirok etgan, Konstitutsiyaviy sud sudyasi sifatida faoliyat yuritib, huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga hissa qo‘shgan.

XULOSA

Professor G‘afur Abdumajidovning huquqshunoslik faniga qo‘shgan hissasi O‘zbekistonda jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquq va ayniqsa kriminalistika fanlarining ilmiy va amaliy jihatdan shakllanishida alohida o‘rin tutadi. U nafaqat ilmiy izlanishlar olib borgan, balki yurtimizda huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatni shakllantirishga, yuridik ta’lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. U tomonidan yozilgan darslik va qo‘llanmalar bugungi kunda ham O‘zbekiston oliv yuridik ta’lim muassasalarida asosiy o‘quv manbalaridan biri sifatida qo‘llanilmoqda. Abdumajidovning faoliyati va ilmiy merosi O‘zbekiston huquqshunoslik tarixining muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning hayoti, mehnati va merosi yosh avlod huquqshunoslari uchun ibrat mакtabidir. Professor G‘afur Abdumajidov o‘zining fidokorona mehnati bilan nafaqat o‘zbek yuridik faniga, balki umuman mamlakatimizning huquqiy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk olim sifatida doimo yodda qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://crimcongress.com/abдумаджидов-гafур-абдумаджидович/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBafur_Abdumajidov